



IJTIMOIIY YODGORLIKLAR VA TARIXIY XOTIRA FALSAFASI

Usmonova Shoxsanam

Igamberdiyev Doniyorbek

Andijon davlat pedagogika

insitituti katta o'qituvchilari

Abdujabborova Umidaxon Oybek qizi

Maxammadjonova Umidaxon Rustamjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Fizika yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: Markur maqolada ijtimoiy yodgorliklar fenomeni va tarixiy xotiraning falsafiy asoslari chuqur tahlil qilinadi. Ijtimoiy yodgorliklar nafaqat moddiy-madaniy merosning ifodasi balki jamiyatning tarixiy ongini, milliy xotirasini shakillantiruvchi ma'naviy-maddaniy hodisa sifatida qaraladi.

Kalit so'zlar:Ijtimoiy yozgorliklar, tarixiy xotira, ijtimoiy ong, falsafiy tafakkur, tarixiy haqiqat, madaniy meros, tarixiy ong.

Kirish. Har bir jamiyat o'zining tarixiy taraqqiyot yo'lida moddiy va ma'naviy merosni yaratibgina qolmay, uni avloddan avlodga yetkazish orqali o'z o'zligini anglash



va mustahkamlashga intiladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda ijtimoiy yodgorliklar jamiyat tarixiy xotirasining muhim timsollari sifatida namoyon bo'ladi. Ular nafaqat o'tmish voqeliklarining guvohi balki bugungi avlodni tarixiy ong, milliy identitet va ma'naviy qadryatlar asosida tarbiyalash vositasidir. Ijtimoiy yodgorliklar va tarixiy xotira o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularning falsafiy talqini orqali jamiyatning o'z tarixiga bo'lgan munosabati, tarixni qanday qabul qilayotgani aniqlanadi. Ijtimoiy yodgorliklar jamiyatning tarixiy xotirasini saqlashda muhim vosita hisoblanadi. Ular o'tmishdagi muhim voqelar shaxslar yoki madaniy hodisalarning timsoli sifatida xalq ongida mustahkam o'rin egallaydi. Yodgorliklar nafaqat tarixiy haqiqatni eslatadi, balki u orqali jamiyat o'zini anglaydi, o'z o'zini tarbiyalaydi va kelajak avlodlarga muhim saboqlarni yetkazadi. Tarixiy yodgorliklarni yaratish va ularni asrab avaylash bu boradagi milliy ong va tarixiy xotiraning ifodasidir. Tarixiy xotira falasafasi esa bu yodgorliklarning ma'naviy axloqiy asoslarini ularning jamiyatdagi o'rnini ularning anglanishi va ideologik talqinini tahlil qiladi. Bu ikki tushuncha o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular jamiyatning o'z-o'zini anglash jarayonida markaziy o'rin egallaydi. Yodgorliklar nafaqat o'tmish voqealarning moddiy belgisi balki ular jamiyat ongida ideologik belgilar sifatida ham shakllanadi. Ular orqali tarixiy xotira shakllanadi va avlodlararo uzviylik ta'minlanadi. Masalan urush yodgorliklari nafaqat halok bo'lganlarni yodga olish balki milliy birlik qahramonlik va fidoyilik timsoli sifatida ham xizmat qiladi. Falsafiy nuqtayi nazardan qaralganda –bu jamiyatning o'z o'tmishiga bergan bahosining timsoli bo'lib, ular orqali kollektiv ong o'zining tarixiy indentifikatsiyasini quradi. Bu holat Pol Riker tomonidan ilgari surilgan „tarixiy xotiraning tanlovi tabiati“ konsepsiyasini tasdiqlaydi- ya'ni jamiyat har doim o'tmishdan ma'lum qismlarigina eslaydi va ularni ijtimoiy ehtiyojlar asosida yuksak qadryat sifatida aks ettiradi. Ijtimoiy yodgorliklarning falsafiy tahlili shuni ko'rsatadiki ular o'zida voqelik va ramziy ma'nolarni uyg'unlashtiradi. Masalan Shoh islom maqbarasi yoki Mustaqillik monumenti singari yodgorliklar nafaqat tarixiy faktlarga asoslangan, balki ular orqali zamonaviy mafkura va g'oyalar ham mujassamlashtirilgan. Bu esa yodgorliklarni milliy xotiraning materiallashtirilgan shakli sifatida baholash



imkonini beradi. Bundan tashqari zamonaviy falsafiy yondashuvlar- xususan postmodernism va dekonstruksiya nazaryalari yodgorliklarning statik emas, balki dinamik tushunchalar ekanligini ilgari suradi. Unga ko'ra har bir avlod o'z tarixiy tajribasiga tayanib yodgorliklarga yangi ma'no baxsh etadi. Bu esa tarixiy xotiraning doimiy ravishda qayta yaralishini anglatadi.

Xulosa. Ijtimoiy yodgorliklar va tarixiy xotira o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik insoniyat ongining eng muhim falsafiy jihatlaridan biridir. Yodgorliklar nafaqat tarixiy faktlarni moddiy shakilda mujassamlashtiradi, balki ular orqali jamiyat o'z o'zligini anglaydi, tarixiy tajribasini qayta baholaydi hamda ma'naviy merosni mustahkamlaydi. Tarixiy xotira esa yodgorliklarni ruh, ma'no va ideologik mazmun baxsh etadi. Shu bois yodgorliklar doimiy ravishda yangilanib boruvchi ijtimoiy- madaniy kod sifatida qaralmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Riker, P. Xotira, tarix, unitilish. Moskva: Gumanitar adabiyotlar nashiryoti.
2. Moris Halbvaks. Kollektiv xotira haqida. Chikago: Chikago universiteti nashryoti. 1992
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi. O'zbekistonda ijtimoiy yodgorliklar va tarixiy merosni saqlash masalalari. Toshkent: Akademiya nashyoti, 2020
4. J, Berten. Madaniyat falsafasi. Sankt- Peterburg: lan nashiryoti 2001
5. Karimov, I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. Toshkent:Ma'naviyat nashiryoti . 1997
6. Nazarov, K. Milliy xotira va tarix falsafasi. Toshkent; 2015